FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ABDURAIMOVA MADINAXON DILSHODJON QIZI

INGLIZ TILIDA YOSH KONSEPTINING LINGVOMADANIY TADQIQI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2026

UO‘K: 811.111'37:008+811.512.133'37:008

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of the Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Abduraimova Madinaxon Dilshodjon qizi
Ingliz tilida yosh konseptining lingvomadaniy tadqiqi …….....3

Abduraimova Madinaxon Dilshodjon qizi
Linguocultural study of the concept of age in the English language…….....25

Abduraimova Madinaxon Dilshodjon qizi
Лингвокультурологическое исследование концепта возраст в английском языке …….....49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ…….....54

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ABDURAIMOVA MADINAXON DILSHODJON QIZI

INGLIZ TILIDA YOSH KONSEPTINING LINGVOMADANIY TADQIQI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Fil5259 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus(rezyume)) Farg‘ona davlat universiteti veb-sahifasida (www.fdu.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalining (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna** filologiya fanlari doktori, professor;
Rasmiy opponentlar:	**Tursunov Akmal Hamidjonovich** filologiya fanlari doktori, professor; **Satimova Dilafruz No‘monjonovna** filologiya fanlari doktori, professor;
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat chet tillari instituti**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning “_____” _____ 2026-yil soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100151, Farg‘ona shahri, B.Marg‘inoniy ko‘chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-66-02; e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Farg‘ona shahri, 100151, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 224-71-28

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____kuni tarqatildi.

(2026-yil “_____” _____dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi).

M.Y.Mamajonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, fil.f.d., professor

I.A.Saminov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, fil.f.b.d., dotsent

A.G.Muxiddinov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, fil.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo tilshunosligining bugungi rivojlanish bosqichida til tizimini antropotsentrik yondashuv asosida tadqiq etish, xususan, til va tafakkur munosabatini kognitiv hamda lingvomadaniy aspektlarda o‘rganish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Antropotsentrik paradigmaning rivojlanishi natijasida kognitiv tilshunoslikning muhim kategoriyasi hisoblangan konseptning mazmuniy tuzilishi, verbalizatsiya vositalari va milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashga, shu jumladan, yosh konseptining inson tafakkuri va til tizimida namoyon bo‘lish qonuniyatlarini ochib berishga ehtiyoj ortib bormoqda. Yosh konseptining leksik-semantik, kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini tizimli tahlil qilish uning verbalizatorlarini tasniflash, yosh davrlariga oid til birliklarining semantik munosabatlarini aniqlash hamda ingliz tilini o‘qitish, tarjima amaliyoti va madaniyatlararo muloqot jarayonlarida ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda amaliy ahamiyatga ega.

Jahon tilshunosligida turli tillardagi konseptlarning kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash, ularning verbalizatsiya vositalari, semantik tarkibi hamda milliy-madaniy mazmunini ochib berishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shu nuqtayi nazardan, yosh konseptining kognitiv-semantik tuzilishini, uning verbalizatorlarini, yadro va periferik qatlamlarini, shuningdek, muayyan til va madaniyatga xos metaforik ifodalanishi, stereotiplari hamda madaniy kodlarini aniqlash va tizimli o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur jihatlarning kompleks tahlili yosh konseptining universal va milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash, uning konseptual tuzilishi hamda til va tafakkur munosabatlaridagi o‘rnini ilmiy asoslash orqali kognitiv va lingvomadaniy tilshunoslikning nazariy asoslarini boyitishga xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligida ham so‘nggi yillarda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitish tizimini takomillashtirish, zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlarini rivojlantirish hamda xalqaro ilmiy-madaniy hamkorlikni kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xorijiy tillarni o‘rgatishni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, ta’lim sifatini tubdan oshirish va aholining xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish vazifalari belgilangan[1]. Bu esa xorijiy tillarni nafaqat kommunikativ vosita, balki milliy-madaniy qadriyatlar, dunyoqarash va tafakkur xususiyatlarini aks ettiruvchi lingvomadaniy hodisa sifatida tadqiq etish zaruratini oshiradi. Shu jihatdan ingliz tilida yosh konseptining bolalik, o‘smirlik, yoshlik, o‘rta yosh va qarilik mikrokonseptlari orqali voqelanishini, uning umuminsoniy va milliy-madaniy xususiyatlarini, konseptual maydonining yadro va periferik qatlamlarini, shuningdek, metaforik, stereotipik, aksiologik hamda madaniy kodlar asosidagi ifodalanish mexanizmlarini aniqlash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son Qarori. Manba: http://lex.uz/docs/5426736. (murojaat sanasi: 25.12.2025).

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2012-yil 10-dekabrdagi PQ–1875-son “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ–5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 19-yanvardagi 34-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlanishida innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqotning nazariy asoslarini kognitiv tilshunoslik doirasida izlanishlar olib borgan J.Lakoff, M.Johnson, K.Filmor, A.Viyerzbika, I.Kolyujnaya, K.Vlasova, S.Yakovleva, N.Kryuchkova, T.Maslova [2] lar, o‘zbek tilshunosligida esa D.Xudoyberganova, Z.Akbarova, M.Baxromova, Z.Ma’rufova, F.Yusupjanova, D.Buzrukova, N.Komilova, S.Yusupova, M.Yusupova [3] kabi tilshunos olimlarning qarashlari tashkil etadi. Bugunga qadar jahon tilshunosligida kognitiv lingvistikaning asosiy tushunchasi sifatida konsept masalasi izchil o‘rganilgan muammolardan bo‘lib, tildagi asosiy konseptual qatlamlar mundarijasi shakllantirilgan.

---

[2] Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980; Fillmore C.J. Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin Publishing Co., 1982; Wierzbicka A. Semantics, Culture, and Cognition. – Oxford: Oxford University Press, 1992; Калюжная И. Возраст человека и способы его концептуализации в немецком и русском языках // Языкознание и литературоведение в синхронии и диахронии: межвузовский сборник научных статей. Вып. 1. – Тамбов: ТГУ, 2006; Власова К.А. Словообразовательные гнезда «молодой – старый» в русском языке: опыт разноаспектного сопоставительного анализа: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2002; Яковлева Е.С. «Время» и «пора» в оппозиции линейного и циклического времени // Логический анализ языка. Культурные концепты. – М.: Наука, 1996; Крючкова Н.В. Концепты возраста (на материале русского и французского языков): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Саратов, 2003.

[3] Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2015; Акбарова З.А. Олам лисоний манзарасининг шаклланишида когнитив ўзига хослик: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Фарғона, 2021; Bahramova M.M. “Ayol” konseptosferasining verbalizatorlari va kognitiv tahlili: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. – Farg‘ona, 2022; Маъруфова З. Мумтоз бадиий матнларда «гўзаллик» концептининг вербаллашуви: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2022; Юсупжанова Ф. Основы и лингвокультурологические особенности вербализаторов концепта «голова» в разносистемных языках (на материале современных английского и русского языков): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2023; Buzrukova D.M. Olamning hissiy-lisoniy manzarasida “Muhabbat” konseptining lingvokulturologik va gender tahlili: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. – Farg‘ona, 2023; Komilova N.A. Gender konseptual semantikasi verbalizatorlari va ularning lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy tadqiqi (hozirgi zamon ingliz va o‘zbek tillari materialida): Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2026; Yusupova S.A. O‘zbek, ingliz va yapon tillarida “hurmat” konseptining semantik, stilistik, lingvopragmatik tadqiqi: Filol. fan. doktori (DSc) ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2026; Yusupova M.I. “Vatanparvarlik” konseptining lingvokulturologik tadqiqi (o‘zbek, ingliz va rus tillari misolida): Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. – Farg‘ona, 2026.

Tilning konseptual tizimida yosh konsepti inson hayotining biologik, ijtimoiy va madaniy bosqichlarini aks ettiruvchi muhim konseptlardan biri sanaladi. Xorijiy tilshunoslik va unga yondosh ilmiy yo‘nalishlarda F. Aries, L. Kostina, S. Romaine, D.Katskova, N.Kuznetsova, V.Bashkeeva, T.Ashxarova, K.Vlasova, N. Kryuchkova, Y.Litvinenko, O.Avdeeva, Y.Konovalova, P.Eckert va N.Jalgasov[4] kabi olimlar yosh tushunchasining leksik-semantik, kognitiv, frazeologik, sotsiolingvistik va lingvomadaniy xususiyatlarini turli nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etganlar. O‘zbek tilshunosligida esa G.Ataxanova[5] ingliz tilida inson yoshini ifodalovchi nominativ birliklarning kognitiv-pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini, R.Axrorova[6] fransuz va o‘zbek tillarida yoshga oid leksik hamda frazeologik birliklarning lisoniy xususiyatlarini, shuningdek, turli yosh guruhlari nutqining diskursiv jihatlarini tadqiq etgan. Shunga qaramay, ingliz tilida yosh konseptining bolalik, o‘smirlik, yoshlik, o‘rta yosh va qarilik mikrokonseptlari doirasidagi verbalizatorlarning kognitiv, assotsiativ-verbal va morfemik-derivatsion xususiyatlarini, konseptual maydonning yadro hamda periferik qatlamlarini, shuningdek, ularda aks etuvchi aksiologik va milliy-madaniy omillarning o‘zaro bog‘liqligini kompleks lingvomadaniy yondashuv asosida tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetining tasdiqlangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi “Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tilning morfemik, leksik, sintaktik, frazeologik sathlarida yosh konseptining verballashuv xususiyatlarini aniqlash, uning semantik

[4] Ариес Ф. Возрасты жизни // Философия и методология истории. – М.: Прогресс, 1977; Костина Л.Т. Исследование группы прилагательных возраста в современном английском языке: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1978; Romaine S. The Language of Children and Adolescents: The Acquisition of Communicative Competence. – Oxford: Basil Blackwell, 1984; Кацкова Д. Имена возраста в русском и словацком языках: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1987; Кузнецова Н.Н. Имена прилагательные, определяющие возраст и внешность человека в русских народных сказках: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1997; Башкеева В.В. Возрастные парадигмы в русском художественном мышлении первой трети XIX века // Логический анализ языка. Образ человека в культуре и языке. – М.: Наука, 1999; Ашхарава А.Т. Концепт «дитя» в русской языковой картине мира: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Архангельск, 2002; Власова К.А. Словообразовательные гнезда «МОЛОДОЙ – СТАРЫЙ» в русском языке: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2002; Крючкова Н.В. Концепты возраста (на материале русского и французского языков): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Саратов, 2003; Литвиненко Ю.Ю. Концепт «возраст» в семантическом пространстве образа человека в русской языковой картине мира: дис. ... канд. филол. наук. – Омск, 2006; Авдеева О.А. Средства выражения концепта «возраст» в английском языке: дис. ... канд. филол. наук. – СПб., 2007; Коновалова Ю.С. Фразеологизмы, паремии и афоризмы как средство объективации возрастных концептов в англо-американской языковой картине мира: дис. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2011; Eckert P. Age as a Sociolinguistic Variable // The Handbook of Sociolinguistics / ed. by F. Coulmas. – Chichester: Wiley Blackwell, 2017. – P. 151–167; Жалгасов Н.М. Антропоцентрические провербиальные образования с оценкой внешности и возраста человека // Science and Society. – 2023. - P. 197–202;

[5] Атаханова Г.Ш. Номинации «возраст человека» в когнитивно-прагматическом и лингвокультурологическом аспектах (на материале английского языка): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2006.

[6] Axrorova R. Fransuz va o‘zbek tillarida “yosh”ga oid semantikali leksik va frazeologik birliklarning lisoniy xususiyatlari. Monografiya. – Farg‘ona, 2021; Axrorova R.U. Turli nutq diskurslarining “yosh”ga oid tavsifi: filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. – Andijon, 2026.

maydonini modellashtirish hamda konseptning kognitiv va milliy-madaniy qirralarini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yosh konseptining lingvokognitiv va lingvomadaniy mohiyatini aniqlash, uning umuminsoniy hamda ingliz madaniyatiga xos milliy xususiyatlarini tavsiflash;

yosh konseptining bolalik, o‘smirlik, yoshlik, o‘rta yosh va qarilik mikrokonseptlaridan tashkil topgan konseptual tuzilishini aniqlash, ularning asosiy verbalizatorlarini yadro va periferik qatlamlar bo‘yicha tizimlashtirish;

ingliz tilida yosh konseptini ifodalovchi birliklarning morfemik-derivatsion va komponent-semantik xususiyatlarini aniqlash, yoshga oid leksik hamda frazeologik verbalizatorlarni semantik guruhlarga ajratish;

ingliz tilida yosh konseptini ifodalovchi leksik birliklarning sintaktik tuzilishi va sintagmatik munosabatlarini aniqlash, ularning so‘z birikmalari hamda predikativ konstruksiyalarda voqelanish xususiyatlarini ochib berish.

ingliz madaniyatida yosh konseptining metaforik ifodalanishi, madaniy kodlari, aksiologik va stereotipik xususiyatlarini aniqlash hamda yoshga oid paremiologik birliklarda namoyon bo‘luvchi milliy-madaniy baholash mezonlarini ochib berish;

ingliz badiiy matnida yosh konseptining kontekstual, obrazli va pragmatik ifodalanish xususiyatlarini tahlil qilish, yosh mikrokonseptlarining badiiy matndagi lingvomadaniy mazmunini asoslash.

Tadqiqot obyekti ingliz tilida yosh konseptini verballashtiruvchi lingvomadaniy birliklardan iborat.

Tadqiqotning predmeti yosh konsepti verbalizatorlari hamda ularning kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari tahlilidan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda konseptual-kognitiv, tavsifiy, etimologik, funksional-semantik, assotsiativ-semantik va diskursiv tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz tilida yosh (*age*) konseptining umuminsoniy va milliy-madaniy xususiyatlari asosida uning bolalik (*childhood*), o‘smirlik (*adolescence*), yoshlik (*youth*), o‘rta yosh (*middle age*) va qarilik (*old age*) mikrokonseptlaridan tashkil topgan lingvokognitiv modeli ishlab chiqilib, konseptual maydon yadrosini yosh davrlarini bevosita ifodalovchi tayanch verbalizatorlar (*child, teenager, young, adult, old*), periferik qatlamlarini esa yoshga oid baholovchi, obrazli va assotsiativ birliklar (*tiny, puberty, blossoming, prime, winter*) tashkil etishi asoslangan;

yosh konseptining morfemik-derivatsion (*-hood, -er, -ish, -ity, pre-, under-*), leksik-semantik (*childhood, adolescence, youth, adulthood, senility*) hamda sintaktik-sintagmatik (*a young child, in one’s teens, at an early age, to grow old*) verbalizatsiya vositalari tizimlashtirilib, mazkur birliklarning yosh davri, shaxsning yoshga oid maqomi, yetuklik darajasi va yoshga bog‘liq holatlarni ifodalovchi struktur-semantik xususiyatlari aniqlangan;

ingliz madaniyatida yosh konseptining bahor – yoshlik (*spring of life*), yoz – o’rta yosh (*summer of life*), qish – qarilik (*winter of life*) kabi metaforik modellari hamda yoshlikning imkoniyat, faollik va erkinlik, qarilikning esa tajriba, donolik va jismoniy zaiflik bilan bog‘liq aksiologik hamda stereotipik belgilari

ochib berilib, yoshga oid maqollarda (*With age comes wisdom*; *You can't teach an old dog new tricks*) mazkur qadriyatlarning ijobiy va salbiy baholash asosida namoyon bo‘lishi lingvomadaniy jihatdan dalillangan;

ingliz badiiy matnida yosh konseptining bolalikdan yetuklikka o‘tish, shaxsning ruhiy-ijtimoiy shakllanishi va yoshga bog‘liq hayotiy tajribani ifodalovchi kontekstual xususiyatlari aniqlanib, yosh mikrokonseptlarining obrazli tasvir, personaj nutqi, yoshga oid tavsiflar va baholovchi birliklar orqali verbalizatsiyalanishi hamda ularning lingvokognitiv va lingvomadaniy vazifalari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz tilida yosh konseptining bolalik, o‘smirlik, yoshlik, o‘rta yosh va qarilik mikrokonseptlaridan tashkil topgan konseptual tuzilishi aniqlanib, ularning asosiy verbalizatorlari yadro va periferik qatlamlarga ajratilgan, konseptning umuminsoniy hamda milliy-madaniy xususiyatlarini tavsiflash mezonlari tizimlashtirilgan;

yosh konseptini voqelantiruvchi morfemik-derivatsion vositalar (-hood, -er, -ish, -ity, pre-, under-) va leksik birliklarning komponent-semantik xususiyatlari tahlil qilinib, yosh davrlari, yetuklik darajasi, yoshga oid holat va ijtimoiy maqomni ifodalovchi verbalizatorlar semantik guruhlarga tasniflangan;

ingliz tilida yoshga oid so‘z birikmalari, predikativ konstruksiyalar va turg‘un birikmalarning struktur-semantik xususiyatlari aniqlanib, ularning yosh davrlarini nomlash, tavsiflash hamda baholashdagi sintaktik-sintagmatik modellari tavsiflangan;

ingliz madaniyatida yosh konseptining metaforik ifodalanishi, madaniy kodlari va stereotipik tasavvurlari aniqlanib, yosh davrlariga xos ijobiy va salbiy aksiologik belgilar hamda ularning milliy-madaniy mazmuni tizimlashtirilgan;

ingliz tilidagi yoshga oid maqollar va frazeologik birliklarning semantik hamda aksiologik xususiyatlari tahlil qilinib, bolalik, yoshlik, o‘rta yosh va qarilikka nisbatan shakllangan baholash mezonlari, hayotiy tajriba, donolik, faollik va yoshga bog‘liq cheklanishlarni ifodalovchi paremiologik modellar tavsiflangan;

ingliz badiiy matnlarida yoshga oid verbalizatorlarning kontekstual va obrazli xususiyatlari aniqlanib, ularning personajlarning yosh davri, ruhiy kechinmalari, ijtimoiy mavqeyi va hayotiy tajribasini ifodalashdagi lingvomadaniy funksiyalari izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ingliz tilidagi yosh konseptini ifodalovchi leksik birliklarning lug‘aviy-semantik xususiyatlari, lug‘at materiallari hamda badiiy matnlardagi kontekstual qo‘llanishlarini tizimli tahlil qilishga asoslanganligi bilan belgilanadi. Yosh mikrokonseptlariga xos assotsiativ bog‘lanishlar lug‘aviy ma’nolar, kontekstual ifodalar, obrazli tasvirlar va baholovchi birliklar asosida aniqlanib, ularning lingvokognitiv hamda lingvomadaniy xususiyatlari ilmiy jihatdan umumlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Ingliz tilida yosh konseptining lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari, besh mikrokonseptining o‘zaro munosabati, yadro va periferik qatlamlari, til birliklari orqali voqelanishi, metafora, stereotip, madaniy kod va aksiologik jihatlari aniqlanganligi hamda ishlab chiqilgan konseptual modelning antropotsentrik

tilshunoslik tadqiqotlari uchun nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya materiallaridan magistratura va bakalavriat bosqichlari uchun “Lingvomadaniyatshunoslik”, “Kognitiv tilshunoslik”, “Sotsiolingvistika” fanlari bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘lanmalarning yangi avlodini yaratish, ilmiy ma’ruzalar, maxsus kurs, seminarlarda foydalanish mumkinligida ko‘rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tilida yosh konseptining tadqiqi asosida:

yosh (*age)* konsepti yaxlit model ko‘rinishida ishlab chiqilib, konseptning yadrosini inson umrining asosiy bosqichlarini ifodalovchi tayanch so‘zlar (*child, teenager, young, adult, old*) tashkil etishi, uning periferiyasi obrazli metaforalar (*tiny, puberty, blossoming, prime, winter*), frazeologizmlar (*To be long in the tooth*) va kognitiv assotsiatsiyalar (*Wisdom and grey hair*) orqali dalillanishiga doir ilmiy xulosa va natijalardan 2021-2023-yillar davomida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PF-201912258-sonli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 25-martdagi 04/1-1550-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘p tilli elektron platformaning lingvokognitiv modullarini takomillashtirish, inson hayotining turli yosh bosqichlarini ifodalovchi til birliklarining kognitiv va milliy-madaniy xususiyatlarini tizimlashtirish hamda ularning lingvomadaniy mazmunini yoritishga xizmat qilgan.

Ingliz madaniyatiga xos bo‘lgan “*spring of life*”, “*summer of life*”, “*winter of life*” kabi madaniy kodlarda akslangan metaforik modellar yoshning imkoniyat, faollik va erkinlik, qarilikning esa tajriba, donolik va jismoniy zaiflik kabi metaforalar orqali ifodalanishi bilan bog‘lanishiga doir lingvomadaniy tahliliy xulosalardan 2025-2026-yillar davomida Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan Erasmus+ International Mobility (KA171) loyihasi doirasida Pavol Jozef Šafárik universiteti bilan hamkorlikda o‘tkazilgan “British and American Studies – Britaniya va Amerika tadqiqotlari” nomli loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2026-yil 26-martdagi 06/2151-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasidagi o‘quv dasturlarida ingliz tilidagi leksik birliklarning nafaqat lug‘aviy ma’nolarini, balki ularda mujassamlashgan madaniy kodlarni, shuningdek, “yoshlik” va “qarilik” bosqichlariga nisbatan shakllangan ijobiy ijtimoiy-madaniy stereotiplarning lingvomadaniy xususiyatlarini tizimli yoritishga xizmat qilgan.

yosh konsepti zamonaviy kognitiv lingvistika talablari asosida qayta talqin qilinib, uning bolalik, o‘smirlik, yoshlik, o‘rta yosh va qarilik kabi tarkibiy tuzilishi izchil kognitiv bosqichlarga doir ilmiy-tahliliy xulosalardan “Farg‘ona viloyati teleradiokanali” davlat muassasasi tomonidan tayyorlangan “Ona tilim”, “Xayrli kun”, “Tafsilot” kabi ko‘rsatuvlar ssenariylarini shakllantirishda foydalanilgan (“Farg‘ona viloyati teleradiokanali” DMning 2026-yil 24-martdagi ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuvlarning ilmiy-ma’rifiy mazmunini boyitish,

yoshga oid tushunchalarning lingvomadaniy xususiyatlarini keng jamoatchilikka yetkazish hamda yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda tilning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini yoritishga xizmat qilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta, shundan xorijiy jurnallarda 5 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 153 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari belgilangan, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Yosh konseptini tahlil etishning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan iborat. “Konsept tushunchasi va uning lingvokognitiv tahlili” nomli birinchi faslda konseptning lingvokognitiv tabiati, uning inson ongida shakllanishi, shuningdek, kognitiv tilshunoslikdagi o‘rni hamda yosh tushunchasining mental model sifatidagi xususiyatlari haqida nazariy ma’lumotlar keltirilgan.

Zamonaviy antropotsentrik tilshunoslikda konsept insonning borliq haqidagi bilimlari, tajribasi va tasavvurlarini ongda tizimlashtiruvchi murakkab mental tuzilma sifatida talqin qilinadi. Konseptni tadqiq etish muayyan so‘zning lug‘aviy ma’nosini tavsiflash bilangina cheklanmay, balki uning ortida turgan bilim, tafakkur, baholash va madaniy tajribani aniqlashni ham nazarda tutadi. S.Askoldov konsept nazariyasining dastlabki ilmiy asoslarini shakllantirib, uni inson ongida mavjud bo‘lgan va kommunikatsiya jarayonida til vositalari orqali ifodalanadigan mazmuniy birlik sifatida izohlaydi[7]. Mazkur yondashuv konseptning tafakkur va til o‘rtasidagi bog‘lovchi xususiyatini aniqlash uchun nazariy asos yaratgan. Keyinchalik konsept haqidagi qarashlar kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik doirasida rivojlanib, uning mental, semantik va madaniy qatlamlarini kompleks o‘rganishga e’tibor kuchaydi. Shu jihatdan konseptni til, tafakkur va madaniyatning o‘zaro munosabatini aks ettiruvchi ko‘p qatlamli tuzilma sifatida tushunish yosh konseptini o‘rganish uchun ham muhim metodologik asos

[7]Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность: От теории словесности к структуре текста: Антология / под общ. ред. В.П. Нерознака. – М.: Academia, 1997. – С. 267–279.

hisoblanadi. Tadqiqotda Askoldovning mazkur qarashlari konsept nazariyasining dastlabki nazariy manbalaridan biri sifatida baholanadi.

Konseptning kognitiv mohiyatini yoritishda Y.Kubryakovaning ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, olima uni insonning bilim tizimi, kognitiv jarayonlari va mental reprezentatsiyalari bilan bog‘liq holda talqin qiladi[8]. Bunday yondashuv tilni faqat kommunikativ vosita emas, balki inson tomonidan borliqni anglash, kategoriyalashtirish va konseptuallashtirish mexanizmi sifatida o‘rganishni taqozo etadi. N.Arutyunova esa konseptual mazmunning shakllanishini til, inson va borliq munosabatlari doirasida yoritib, lisoniy birliklarning inson tomonidan voqelikni idrok etish jarayoni bilan uzviy bog‘liqligini asoslaydi.[9] Y. Stepanov konseptning kognitiv xususiyatlari bilan bir qatorda uning madaniy mazmuniga alohida e’tibor qaratib, konseptni madaniyat va tafakkurning til orqali voqelanuvchi birligi sifatida talqin qiladi[10]. Ushbu qarashlar konseptning bevosita kuzatiladigan bitta lisoniy birlikka teng emasligi, balki uning mazmuni turli verbal vositalar orqali obyektivlashishini ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqib, ingliz tilidagi yosh konseptini faqat *age* (yosh) leksemasi doirasida emas, balki uni bevosita va bilvosita verbalizatsiya qiluvchi birliklarning yaxlit tizimi sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq. Mazkur nazariy pozitsiya tadqiqotimizda yosh konseptining morfemik-derivatsion, leksik-semantik, frazeologik va sintagmatik voqelanishini kompleks tahlil qilishga asos bo‘ladi.

Konseptning lingvomadaniy mohiyatini aniqlashda S.Vorkachyov va V. Maslovaning[11] qarashlari muhim bo‘lib, ularda konseptning emotsional, baholovchi, qadriyatli hamda milliy-madaniy tarkibiy qismlariga alohida e’tibor qaratiladi. Mazkur yondashuv yoshni faqat biologik yoki xronologik ko‘rsatkich sifatida emas, balki jamiyatning muayyan yosh bosqichlariga munosabatini aks ettiruvchi lingvomadaniy hodisa sifatida o‘rganish imkonini beradi. yosh semantik maydonining lisoniy xususiyatlarini o‘rganishda R.Axrorovaning tadqiqotlari ham bevosita ahamiyatga ega bo‘lib, olima fransuz va o‘zbek tillaridagi yoshga oid semantikali leksik hamda frazeologik birliklarning lisoniy xususiyatlarini maxsus tadqiq etgan[12]. Shuningdek, uning keyingi tadqiqotlarida turli nutq diskurslarining yoshga oid tavsifi masalasi kengaytirilib, yosh omilining diskursiv voqelanishiga e’tibor qaratilgan. Mazkur tadqiqotlar yoshning lisoniy ifodasi leksik va frazeologik birliklar bilan cheklanmasdan, turli kommunikativ va diskursiv sharoitlarda ham namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Biroq ingliz tilida yosh konseptini verbalizatsiya qiluvchi birliklarning kognitiv xususiyatlari, konseptual maydonning yadro va periferik qatlamlari hamda ularda lingvomadaniy omillarning namoyon bo‘lishini o‘zaro bog‘liq holda tizimlashtirish zarurati saqlanib qoladi.

---

[8] Кубрякова Е.С. Начала становления когнитивной науки о языке // Вопросы языкознания. – 1994. – № 4. – С. 34–47.

[9] Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С. 3–15.

[10] Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1997. – С. 40–43.

[11] Воркачев С.Г. Ценностный концепт: от понятия к слову. – М.: ИФРАН РАН, 2002. – С. 14–18; Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С. 47–52.

[12] Axrorova R. Fransuz va o‘zbek tillarida “yosh”ga oid semantikali leksik va frazeologik birliklarning lisoniy xususiyatlari. Monografiya. – Farg‘ona, 2021. – 119 b.

Tadqiqotda yosh konsepti bolalik, o‘smirlik, yoshlik, o‘rta yosh va qarilik mikrokonseptlaridan tashkil topgan, yadro va periferik qatlamlari hamda semantik, derivatsion, sintagmatik, aksiologik, assotsiativ, stereotipik va metaforik xususiyatlari orqali voqelanuvchi umuminsoniy va milliy-madaniy mazmunga ega ko‘p qatlamli lingvokognitiv-lingvomadaniy tuzilma sifatida talqin qilinadi.

Ushbu bobning “Yosh konseptining umuminsoniy va milliy xususiyatlari” deb nomlangan ikkinchi faslida ushbu konseptning mazmuniy qatlamlari ingliz tili materiallari asosida tadqiq etilgan. Unda yosh tushunchasining nafaqat xronologik ko‘rsatkich, balki ingliz xalqi dunyoqarashida namoyon bo‘ladigan madaniy va ijtimoiy kategoriya sifatidagi o‘rni tahlil qilingan. Inson umri davrlarining ingliz madaniyatiga xos idrok etilishi, yosh bilan bog‘liq ijtimoiy rollar hamda ushbu konseptning umuminsoniy qadriyatlar bilan aloqadorlik jihatlari misollar bilan dalillangan.

Yosh konsepti inson hayotining biologik, psixologik va ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiruvchi universal konseptlardan biri bo‘lib, uning mazmunida umuminsoniy hamda milliy-madaniy xususiyatlar o‘zaro uyg‘unlashadi. O.Kurisheva yoshni inson hayotining barcha davrlarida mavjud bo‘ladigan asosiy psixologik, ijtimoiy va madaniy kategoriyalardan biri sifatida tavsiflaydi[13]. T.Tyler, R.Kramer va O.John tadqiqotlarida[14] yosh guruhlariga ajratish turli madaniyatlarda uchraydigan ijtimoiy kategoriyalash vositasi bo‘lib, shaxsning jamiyatdagi o‘rni, maqomi va ijtimoiy munosabatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatiladi. Shu nuqtayi nazardan, inson hayotining bolalik, o‘smirlik, yoshlik, o‘rta yosh va qarilik bosqichlariga ajratilishi yosh konseptining umuminsoniy asosini tashkil etadi. Mazkur bosqichlar jismoniy rivojlanish, psixologik o‘zgarish, tajriba ortishi, ijtimoiylashuv va shaxs bajaradigan ijtimoiy rollarning almashinuvi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ularning xronologik chegaralari barcha jamiyatlarda mutlaq bir xil emas. Binobarin, yosh konseptining umuminsoniyligi biologik va psixofiziologik rivojlanishning umumiyligida, milliy xususiyati esa ushbu bosqichlarga muayyan madaniyat tomonidan yuklanadigan baho, konnotatsiya, stereotip, assotsiatsiya va ijtimoiy me’yorlarda namoyon bo‘ladi.

Yosh makrokonseptining ichki tuzilishini tashkil etuvchi besh mikrokonseptning universal xususiyati ularning qat’iy yosh chegaralarida emas, balki inson hayotidagi biologik, psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlarni ifodalashida namoyon bo‘ladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti *adolescence* davrini bolalikdan kattalikka o‘tishning alohida rivojlanish bosqichi sifatida belgilab, bu davrda jismoniy, kognitiv va psixosotsial o‘zgarishlar jadal kechishini qayd etadi[15]. BMT statistik maqsadlarda *youth* tushunchasini 15–24 yosh oralig‘idagi shaxslarga nisbatan qo‘llaydi, biroq ushbu chegaraning barcha jamiyatlar uchun yagona

[13] Курышева О.В. Возрастные аспекты социальной категоризации // Психология и психофизиология. – 2025. – № 1. – С. 45–52;

[14] Tyler T.R., Kramer R.M., John O.P. (eds.). The Psychology of the Social Self. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1999. – P. 3–20.

[15] World Health Organization. Adolescent health and development [Elektron manba]. – Geneva: WHO. – https://www.who.int/news-room/questions-and-answers/item/adolescent-health-and-development. (murojaat sanasi: 21.08.2026).

universal ta’rif emasligini ham ta’kidlaydi[16]. Masalan, 15–17 yoshdagi shaxs huquqiy jihatdan *child(*bola*)*, rivojlanish jihatidan *adolescent*, xronologik nominatsiya jihatidan *teenager* va statistik tasnifda *youth* sifatida tavsiflanishi mumkin. Bunda *teenager* ko‘proq ingliz tilidagi *-teen* bilan tugaydigan yosh sonlariga tayansa, *adolescent* biologik-psixologik rivojlanish bosqichini, *youth* esa yosh bilan bir qatorda ijtimoiy maqom va guruhiy mansublikni ham ifodalaydi. Mazkur kesishuv xronologik yosh bilan konseptual yosh aynan bir hodisa emasligini, yosh nominatsiyalarini esa faqat raqamli chegaralar asosida emas, balki ularning semantik tarkibi va qo‘llanish holati orqali tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Ingliz lingvomadaniyatida yosh konsepti o‘ziga xos semantik, aksiologik va obrazli belgilar bilan tavsiflanadi. Bolalik ingliz lisoniy ongida o‘sish, qaramlik, beg‘uborlik va tajribasizlik bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘smirlik o‘tish davri, jismoniy-psixologik o‘zgarish va mustaqillikka intilish belgilarini namoyon etadi; yoshlik esa faollik, imkoniyat, yangilik va hayotiy kuch bilan assotsiatsiyalanadi[17]. O‘rta yosh konseptual jihatdan yetuklik, mustaqillik, mas’uliyat, barqaror ijtimoiy mavqe va tajriba bilan bog‘lanadi, qarilik esa bir tomondan hayotiy tajriba va donishmandlik, ikkinchi tomondan jismoniy imkoniyatlarning pasayishi va hayot siklining yakuniy bosqichi sifatida baholanadi[18]. Mazkur xususiyatlarning bir qismi umuminsoniy xarakterga ega bo‘lsa-da, ularning ingliz lingvomadaniyatidagi milliy-madaniy voqelanishi yoshga oid leksik birliklar, frazeologizmlar, metaforalar va baholovchi nominatsiyalarda namoyon bo‘ladi; xususan, in the prime of life yetuklikni ijobiy baholash, over the hill qarilikni imkoniyatlarning pasayishi, no spring chicken esa katta yoshni yumoristik-ironik tarzda konseptuallashtiradi[19]. UNICEF materiallarida ham bolaning to‘laqonli rivojlanishi uchun sog‘liq, oziqlanish, xavfsizlik, himoya, ta’lim va kattalar g‘amxo‘rligi zarurligi qayd etilishi bolalik mikrokonseptidagi rivojlanish – qaramlik – himoya semantik birligini asoslashga xizmat qiladi[20]. Yoshga doir tadqiqotlarda G.Yakubova turli lingvomadaniyatlardagi child konseptini tahlil qilib, masalan, yapon tilidagi kodomo, arab tilidagi *ṭifl,* ispan tilidagi *niño/niña* hamda xitoy tilidagi *háizi* birliklari bolalikni quvonch, poklik, salohiyat, oilaviy bog‘liqlik, tarbiya va ta’lim kabi turli madaniy mazmunlar bilan bog‘lashini ko‘rsatadi[21]. Ingliz tilidagi child birligi ham faqat muayyan yoshdagi shaxsni nomlash bilan cheklanmay, kontekstga ko‘ra beg‘uborlik, qiziquvchanlik va salohiyat kabi qo‘shimcha mazmunlarni ifodalashi mumkin.

---

[16] United Nations. Youth: Who Are the Youth? [Elektron manba]. – New York: United Nations. – https://www.un.org/en/global-issues/youth . (murojaat sanasi: 21.08.2026)

[17] Tejada-Caller P. On “Shapelings” and “Childlings”: A Linguistics Approach to the Emergence of New Cultural Borders between the Unborn and the New-Born Child in EME (1500–1700) // Journal of English Studies. – 2020. – Vol. 18. – P. 227–251. Djabbarov Sh. A Diachronic Study of the Concept of Youth in the English Linguacultural Context // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2024. – Vol. 5. – No. 9. – P. 53–61.

[18] Seyidova S. The Concept of “Age” and Its Idiomatic Representation in the Azerbaijani, English and Russian Languages // Bulletin of L.N. Gumilyov Eurasian National University. Philology Series. – 2019. – No. 1 (126). – P. 157–164.

[19] Khamrakulova S.F. Phraseological Representations of Youth and Old Age: A Cross-Linguistic Analysis // Development and Innovations in Science. – 2025. – Vol. 4. – No. 9. – P. 44–48.

[20] UNICEF. Early Childhood Development [Elektron manba]. – New York: United Nations Children’s Fund. – https://www.unicef.org/early-childhood-development . – (murojaat sanasi: 21.08.2026).

[21] Yakubova G. Linguistic features of the concept “Child” in the English language // Экономика и наука в современном мире. Развитие новых возможностей. – Moscow, 2025. – С. 119–121.

R.Axrorovaning yoshga oid leksik va frazeologik birliklar bo‘yicha tadqiqotlari esa yosh semantikasining turli lisoniy vositalar orqali voqelanishi va ularda milliy-madaniy xususiyatlarning aks etishini ko‘rsatadi[22]. Demak, yosh bosqichlarining biologik-rivojlanish asoslari umuminsoniy xarakterga ega bo‘lsa, ularning til orqali konseptuallashtirilishi, baholanishi va qo‘shimcha ma’no kasb etishi lingvomadaniy xususiyatlarni yuzaga chiqaradi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ham katta yoshdagi insonlarning jismoniy va aqliy imkoniyatlari nihoyatda xilma-xil ekanini hamda xronologik yoshning o‘zi insonning funksional holatini to‘liq belgilamasligini ta’kidlaydi[23]. Shunday qilib, yosh konseptining universal va milliy-madaniy xususiyatlari yosh verbalizatorlarining semantik-konnotativ mazmuni, aksiologik bahosi hamda kontekstual qo‘llanishi orqali aniqlanib, uning ingliz lingvomadaniyatidagi voqelanishini tizimli tahlil qilishga nazariy asos yaratadi.

Dissertatsiyaning “Yosh konseptining lingvokognitiv maydoni va asosiy verbalizatorlari” deb nomlangan uchinchi faslida yosh konseptini tashkil etuvchi kognitiv tuzilmalar va ularning ingliz tilidagi lisoniy ifodalari hisoblangan verbalizatorlari tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot davomida yosh davrlarini ifodalovchi leksik birliklarning semantik hajmi, ularning kognitiv maydondagi o‘rni hamda ushbu birliklar o‘rtasidagi assotsiativ aloqalar aniqlangan.

Ijtimoiy munosabatlarni tadqiq etgan olimlar V.Foyt, F.Aries, V.Karasik, O.Leontovich, N.Shaxmatovalarning tadqiqotlarida[24] yosh guruhlarini ajratish biologik rivojlanish va organizmning funksional xususiyatlariga asoslansa-da, ularning chegaralari jamiyatning ijtimoiy-madaniy tuzilishi hamda lisoniy dunyo manzarasi bilan uzviy bog‘liqdir. yosh konseptining lingvokognitiv maydonini o‘rganish fanlararo yondashuvni talab etadi, chunki u biologik jarayonlar bilan birga ijtimoiy, psixologik va madaniy omillarni ham qamrab oladi. Bunda sotsiologiya yoshga xos ijtimoiy rol va maqomlarni, psixologiya kognitiv va ruhiy rivojlanish bosqichlarini, antropologiya esa yoshning milliy-madaniy xususiyatlarini yoritib, konseptning lingvokognitiv va lingvomadaniy mohiyatini kompleks tahlil qilishga xizmat qiladi. Psixologik adabiyotlarda yoshning to‘rtta turi ajratib ko‘rsatiladi: xronologik, ijtimoiy, biologik va psixologik, ularning barchasi til tizimida o‘z aksini topadi. Biologik yosh A.Tolstix[25] tomonidan “hayot davrlari” sifatida tavsiflanadi va u insonning fiziologik rivojlanish bosqichlarini bildiradi. Til tizimida bu yosh childhood (*bolalik*), middle age (*o‘rta yosh*) kabi bosqichlarni bildiruvchi birliklar bilan hamda baby (*go‘dak*), child (*bola*), adult (*kattalar*), grown-up (*voyaga yetgan*) kabi shaxsni bevosita ifodalovchi so‘zlar orqali namoyon bo‘ladi. Psixologik yosh

[22] Axrorova R. Fransuz va o‘zbek tillarida “yosh”ga oid semantikali leksik va frazeologik birliklarning lisoniy xususiyatlari. Monografiya. – Farg‘ona, 2021. – 119 b.

[23] World Health Organization. World Report on Ageing and Health [Elektron manba]. – Geneva: World Health Organization, 2015. – https://www.who.int/publications/i/item/9789241565042 (murojaat sanasi: 21.08.2026).

[24] Foyt V.G. Socialization and the Life Course // Annual Review of Sociology. – 1988. – Vol. 14. – P. 305–307; Ariès Ph. Centuries of Childhood: A Social History of Family Life. – New York: Knopf, 1962. – P. 15–18; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Гнозис, 2004. – С. 87–90; Леонтович О.А. Русские и американцы: парадоксы межкультурного общения. – М.: Гнозис, 2005. – С. 20–23; Шахматова Н.В. Трансформации жизненного пути поколений в современной России. – Саратов: Изд-во Сарат. ун-та, 2003. – С. 34–37.

[25] Толстых А. В. Возраст жизни. – М: Молодая гвардия, 1988. – С. 18–21.

esa insonning ichki vaqt hissi va o‘z shaxsiy yoshini ruhiy kechinma sifatida anglash jarayonini ifodalaydi

Ikkinchi bob **“Ingliz tilida yosh konseptining lisoniy ifoda vositalari”** deb nomlangan bo‘lib, uch fasldan iborat, birinchi fasl “Morfemik-derivatsion vositalar orqali yosh konseptining lingvistik ifodalanishi” deb nomlangan. Ushbu faslda ingliz tilidagi yoshga oid leksik birliklarning morfemik tarkibi, ularning yosh bosqichlarini (bolalik, o‘smirlik, yoshlik, o‘rta yosh va keksalik) ifodalashdagi o‘rni hamda affikslarning semantik xususiyatlari tahlil qilingan.

Tadqiqotning materiallarini shakllantirishda Oxford English Dictionary[26], Merriam-Webster Dictionary[27], Cambridge Dictionary[28] va Collins English Dictionary[29] manbalaridan foydalanildi. Mazkur lug‘atlardan yosh konseptini verbalizatsiya qiluvchi leksik birliklar saralanib, ularning morfemik tarkibi tahlil qilindi hamda ushbu birliklarning yasalishida ishtirok etuvchi affikslar ajratib olindi. Natijada yoshga oid hosila birliklar tarkibida faol qo‘llangan 24ta affiks aniqlanib, ularning derivatsion va semantik xususiyatlari tizimlashtirildi.

Tadqiqot doirasida yosh konseptini lingvistik jihatdan verbalizatsiya qiluvchi 24ta affiks tahlil etilib, ular yordamida yasalgan 73ta leksik birlik ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot doirasida tahlil qilingan 24ta morfemik birliklar tarkibiy tuzilishiga ko‘ra ikki guruhga ajratildi: bularga so‘z o‘zagidan oldin keluvchi *pre-* va *under-* kabi 2 ta prefiks, shuningdek, so‘z yasovchi *-y, -hood, -age, -ing, -ence, -ity, -ation, -ion, -ness, -ling, -er, -arian, -kin, -ine, -ly, -less, -ish, -able, -ile, -al, -teen va -ic* kabi 22 ta suffiks kiradi.

Yosh konseptining turli bosqichlarini ifodalovchi so‘zlarni tahlil qilishda, ularning, asosan, ot va sifat so‘z turkumlariga mansubligini kuzatishimiz mumkin. Otlar hayot bosqichini yoki shaxsni nomlash uchun ishlatiladi (masalan, *childhood, toddler*), sifatlar esa xususiyat yoki holatni ta’riflash imkonini beradi (*young, yosh*). Shu so‘z turkumlariga e’tibor qaratish, tadqiqotga ilmiy asos beradi, chunki ular yosh konseptining semantik va morfologik tarkibini ochib berishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Ot so‘z turkimiga mansub bo‘lgan yosh konseptining verballashtiruvchi morfemalar nisbatan ko‘p uchraydi. Ingliz tilida davr bilan bog‘liq bo‘lgan affikslarga *-y, -hood, -age, -ence, -ing, -ity, -ation, -ion, -ness* singari qo‘shimchalarni kiritishimiz mumkin. Quyida biz har bir affiksga to‘xtalib o‘tamiz.

-y affiksi ingliz tilida turli xil so’z turkumlaridagi asosga qo’shilgan holda yoshning davrini anglatadi.


Masalan: *infancy* (chaqaloqlik) [noun+-y=age-person period] - mazkur affiks bilan bog‘liq bo‘lgan holda, asosan, 2 oylik chaqaloqdan 1 yoshgacha bo‘lgan davrga nisbatan qo‘llaniladi.

[26] https://www.oed.com/ (murojaat sanasi: 25.11.2024)


[27] Merriam-Webster’s Collegiate Dictionary. – 11th ed. – Springfield, MA: Merriam-Webster, Inc., 2003. – 1623 p.

[28] Cambridge Advanced Learner’s Dictionary / ed. by C. McIntosh. – 4th ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013. – 1844 p.

[29] Collins English Dictionary. – 13th ed. – Glasgow: HarperCollins Publishers, 2018. – 2336 p.




Hoary [Adj. + -y = Age-person adj] - oqsoqol, qarigan, *tottery* [V_{1+}-y=Age-person quality] - nogiron, qariya keksalik alomati bilan qadam tashlaydigan, *granny* [Noun+-y=age-person noun] - buvijon, qari ayol so'zlari ham ushbu affiksga misol bo'ladi.



-hood affiksi asosga qo'shilib, shaxsning muayyan yosh davrini yoki hayot bosqichini ifodalovchi otlarni hosil qiladi. Inson yoshi bilan bog'liq holda *-hood* affiksi bilan bog'liq bir necha davrni, ya'ni *babyhood* [Noun+y=Age-person period] – umumiy bolalik davrini ifodalovchi so'z bo'lib, ushbu davrga tug'ilganlikdan 4 yoshgacha bo'lgan davrni olish mumkin, *toddlerhood* – 1-3 yosh oralig'idagi davr, *childhood* – bolalik davri, *adulthood* – katta yosh, voyaga yetganlik davri, manhood – erkaklik, yetuklik davri, *womanhood* – ayollik, yetuklik davri ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, mazkur affiks hayvonlardagi yosh bilan bog'liq bo'lgan davrlarni ham bildiradi. Masalan, *puppyhood* [Noun+-y=Age thing period] - itlarning yoshlik davri , *kittenhood* - mushukning yoshlik davri. Mazkur qo'shimcha nafaqat uy hayvonlarini, balki yovvoyi hayvonlarning ham bolalik davrini ifodalashda ishlatiladi. Masalan, *cubhood* - ayiq, sher, yo'lbars kabi hayvonlarning bolalik davri. Ushbu affiksi nutqda qo'llanilishiga quyidagi misolni olishimiz mumkin: *"I have always been interested in the little incidents of my own childhood"*[30]. (Men har doim o'zimning bolaligimdagi kichik voqealarga qiziqib kelganman). Asar bosh qahramoni bo'lgan David Copperfield romani boshida o'z bolaligini eslab, "*childhood*" – ya'ni bolalik davri, inson hayotining dastlabki va shakllanish davri sifatida tasvirlangan. Bu yerda "*childhood*" konsepti bolalikning individual tajribalari, hissiyotlari va kundalik voqealari orqali verballashgan.

-age affiksi asosga qo'shilgan holda undan anglashilgan ma'no yosh davrini anglatadi.




Masalan, *nonage* [Adjective+-age=Age-person noun] – voyaga yetmaganlik, yoshlik davrini ifodalash bilan bir qatorda ingliz lug'atlarida [31] bu davrga nisbatan qonuniy ravishda turli bitimlarni amalga oshirishi mumkin bo'lgan yosh holati nazarda tutiladi deb izohlanadi. *Dotage* - qarilikning oxirgi bosqichdagi davri bo'lib, bu davrda qarilik oqibatida insonlar ahmoqona va nazoratsiz xatti-harakatlarga moyil bo'lib qoladi deb ishoniladi, *pupilage* [Noun+-age=Age-person noun] – o'quvchilik davrini anglatadi bu yana shogirdlik davrini ifodalab biror ustoz qo'lida ta'lim olayotgan va hali mustaqil bo'lmagan davrni ham ifodalaydi, *teenage* – o'smirlik davri bo'lib, 13-19 yosh oralig'idagi davrni ifodalaydi. *anecdotage* - qarilik, insonning xotiralar bilan to'la keksalik davri.

[30] Dickens Ch. David Copperfield. – London: Penguin Books, 2004. – P. 25.
[31] https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/nonage (murojaat sanasi: 21.11.2025).

Ingliz tilida shaxsni ifodalovchi affikslarga *–ling, -er, -kin, -et, -ine, -ly, ness, -less, -ish, -able, -al, -ic, -arian* singari qo'shimchalarni kiritishimiz mumkin. Quyida biz har bir affiksga alohida to'xtalib o'tamiz.

-ling affiksi asosga qo'shilib ayni bir davrdagi shaxslarni ifodalaydigan so'z yasaydi.



APN–Age-person noun (yoshni ifodalovchi shaxs otlari)
ATN-Age-thing noun (yoshni ifodalovchi narsa buyum otlari)
APN-Age-plant noun (yoshni ifodalovchi o'simlik otlari)
V – Verb (fe'l)
Adj –adjective (sifat)
Adv-adverb (ravish)
N-noun (ot)

Ushbu bobning ikkinchi fasli "Leksik vositalar orqali yosh konseptining lisoniy ifodalanishi" deb nomlanadi. Mazkur faslda yosh makrokonsepti leksik-semantik maydon sifatida modellashtirilib, uning tarkibiy qismlari - *childhood (bolalik), adolescence (o'smirlik), youth (yoshlik), middle age (o'rta yosh) va old age (qarilik)* mikrokonseptlari yadro va periferiya tamoyili asosida tadqiq etilgan. Bunda leksik birliklarning denotativ va konnotativ ma'nolari, ularning gender xususiyatlari hamda badiiy matndagi kontekstual ma'no qirralari ochib berilgan.

Leksik sath tildagi eng faol va dinamik qatlamlardan biri bo'lib, u doimiy ravishda yangilanib boradi. "Har bir davr, ijtimoiy o'zgarish yoki madaniy jarayon va leksik qatlamda o'z aksini topadi"[32]. Ayniqsa, yosh konseptiga oid leksik birliklar inson hayotining muhim bosqichlarini, ularning ruhiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot ishida konseptologik nuqtayi nazardan yosh makrokonsept sifatida qabul qilinadi. Shu nuqtayi nazardan, age (yosh) makrokonsepti doirasida biz besh mikrokonseptni: *childhood* (bolalik), *adolescence* (o'smirlik), *youth* (yoshlik), *middle age* (o'rta yosh) va *old age* (qarilik) - tahlil qilish uchun ajratdik.

Quyida biz har bir mikrokonseptni alohida-alohida leksik tahlilga tortdik.

I. *Childhood* (bolalik) mikrokonseptiga doir leksik birliklar tahlili.

Childhood (bolalik) mikrokonsepti. Birinchi guruhga "*childhood*" – bolalik mikrokonsepti olingan bo'lib, ingliz tili izohli lug'atida unga quyidagicha ta'rif beriladi: "*Childhood is a state of being a child*"[33] (Bolalik bu bola bo'lish davri).

[32] G'ulomov A. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. – B.67
[33] https://www.oed.com/search/dictionary/?scope=Entries&q=childhood&tl=true (murojaat sanasi 10.11.2025)

Ushbu ta’rif bolalikni inson hayotidagi o‘ziga xos rivojlanish bosqichi sifatida ko‘rsatadi, uning psixologik, ijtimoiy va biologik jihatlarini o‘z ichiga oladi. Bolalik konsepti lingvistik tahlilda leksik birliklar orqali o‘rganilganda, u nafaqat yosh davrini belgilovchi nomlar va atamalarni, balki ushbu davrga xos fazilatlar, xatti-harakatlar va ijtimoiy rollarni ham aks ettiradi. Shunday qilib, “*childhood*” mikrokonsepti tahlil qilinayotganda, leksik birliklarning yadro va periferik semantik qatlamlari aniqlanadi, bu esa tadqiqotga konseptning strukturaviy va funksional jihatlarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi

Quyida biz “bolalik” konseptiga doir so‘zlarni aynan shu yadro va periferiya tahlili usuli asosida ko‘rib chiqamiz. Birinchi guruhning yadro qismini neytral uslubdagi, bolalik tushunchasini umumiy va mavhum tarzda ifodalovchi birliklar tashkil etadi: *childhood* (bolalik), *babyhood* (chaqaloqlik), *infancy* (go‘daklik), *new-born* (yangi tug‘ilgan). Bolalikni bildiruvchi ushbu birliklar giposemasi ostida yig‘ilgan birliklar bolalik konseptining til orqali ifodalanuvchi asosiy leksik manbayini tashkil etadi. Ushbu guruhda yadro birliklar (*childhood, babyhood, infancy*) konseptning eng barqaror va umumiy semasini o‘zida mujassam etadi: ular bolalikni mavhum va neytral tarzda ifodalaydi hamda ko‘p hollarda uslubiy tafovutsiz ishlatiladi.

Periferik qatlam esa mazkur markaziy leksemalarning ma’nosini aniqlashtiruvchi, ularning semantik doirasini kengaytiruvchi va uslubiy jihatdan rang-baranglik kirituvchi birliklardan iborat. Ular qatoriga bolalik va yosh davrining mavhum, holat yoki belgi sifatida ifodalanishini bildiruvchi quyidagi leksemalar ham kiradi: *minority* (voyaga yetmaganlik), *pupilage* (o‘quvchilik yoki shogirdlik davri), *nonage* (voyaga yetmaganlik davri), *prepubescence* (balog‘atga yetishdan oldingi davr), *beginning* (boshlanish, ilk davr), *prepubescent* (balog‘atga yetishdan oldingi), *kiddish* (bolalarcha), *hoydenish* (bolalarcha sho‘x, shovqinli), *fledgeling* (yangi o‘rganayotgan, tajribasiz), *unbreeched* (hali katta bo‘lmagan, yosh), *ageless* (yoshini sezdirmaydigan), *tiny* (juda kichik), *unwrinkled* (tirish tushmagan, yoshga xos silliq va tarang holatdagi teri). Shuningdek, ushbu konseptga doir hayvonlarga oid yosh va yetilmaganlikni ifodalovchi leksemalar ham mavjud bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: *kittenish* (yosh mushukchaga xos xatti-harakat), *coltish* (yosh otga xos sho‘x, yetilmagan). Bu leksemalar ko‘pincha metaforik ko‘chish asosida inson bolaligiga xos sho‘xlik, tajribasizlik yoki yetilmaganlikni tasvirlashda ham qo‘llanadi.

Childhood (bolalik) konseptida erkak jins vakilini ifodalovchi birliklar. Ushbu guruhga quyidagi so‘zlar kiradi: *cockerel* (jo‘jaxo‘roz), *boykin* (kichik o‘g‘il bola), *tad* (bolakay), *urchin* (ko‘cha bolasi, tashlandiq bola), *nipper* (chaqqon bola), *tyke* (palapartish bola).

Childhood (bolalik) konseptida ayol jins vakilini ifodalovchi birliklar. Bu guruhga *quaill* (kichik, uyalchang qiz), *quiff* (yoshlikdagi hayolparast qiz), *gamine* (sho‘x, erkakshoda), *puss* (erkatoy qizaloq, mushukchaday beozor) kabi so‘zlar kiradi.

Bobning uchinchi fasli “Sintaktik va sintagmatik konstruksiyalar orqali yosh konseptining lingvistik verbalizatsiyasi” deb nomlanadi.

Ingliz tilida yosh konsepti alohida leksemalar bilangina emas, balki so‘zlarning o‘zaro sintagmatik bog‘lanishi va turli sintaktik konstruksiyalar orqali ham verbalizatsiyalanadi. So‘z birikmalari tarkibida yoshga oid birlikning ma’nosi boshqa komponent bilan munosabatga kirishib, uning semantik, baholovchi va funksional xususiyatlarini aniqlashtiradi. Masalan, *tender age* - murg‘ak yosh, *ripe age* - yetuk yosh, *advanced age* - keksaygan yosh birikmalarida *age* umumiy yosh tushunchasini ifodalasa, *tender, ripe, advanced* komponentlari uning muayyan bosqichi va sifat xususiyatini aniqlashtiradi. M.Levisning leksik yondashuviga ko‘ra, nutqiy birliklar ***words, polywords, collocations, institutionalized utterances, sentence frames and text frames*** kabi turlarga ajratiladi[34]. Tadqiqotda ushbu tasnif yosh konseptiga tatbiq etilib, *child, teenager, adult, old age* - alohida so‘zlar; *a young child, growing up, in his/her teens* - ko‘p komponentli birliklar; *child development, adolescent behavior, elderly care* - kollokatsiyalar sifatida ko‘rib chiqildi. Shuningdek, *How old are you?, When I was your age..., You are getting older* kabi nutqiy qoliplar hamda *At the age of... he/she..., During childhood/teenage years..., In old age...* kabi gap modellari yosh mazmunining kommunikativ va kontekstual voqelanishini namoyon etadi.

Sintagmatik tahlil natijasida yosh konseptini ifodalovchi birliklar struktur jihatdan **fe’l + ot, sifat + ot, ot + fe’l, fe’l + ravish, ravish + sifat** modellariga ajratildi. Jumladan, **[V + N]** modelida *reach maturity* - yetuklikka erishmoq, *enter adulthood* - voyaga yetmoq; **[Adj + N]** modelida *tender age* - murg‘ak yosh, *advanced age* - keksaygan yosh; **[N + V]** modelida *age creeps* - qarilik o‘rmalab keladi, *childhood passes* - bolalik o‘tib ketadi; **[V + Adv]** modelida *age gracefully* - chiroyli qarimoq, *mature early* - erta yetilmoq; **[Adv + Adj]** modelida esa *highly experienced* - yuksak tajribali, *surprisingly young* - hayratlanarli darajada yosh kabi konstruksiyalar kuzatiladi. Ushbu modellar bir xil konseptual mazmunni turli sintaktik munosabatlar orqali yuzaga chiqaradi: **[Adj + N] → yoshning belgi/bahosi; [V + N] → yosh subyektiga yo‘naltirilgan harakat yoki yosh bosqichiga kirish; [N + V] → yosh subyektining harakati/holati; [V + Adv] → yoshga oid jarayonning kechish xususiyati; [Adv + Adj] → yosh belgisining darajasi**. Masalan, *protect the child* konstruksiyasida *child* bolalik mikrokonseptining bevosita verbalizatori bo‘lsa, *protect* fe’li unga nisbatan amalga oshiriladigan himoya harakatini faollashtiradi. Dissertatsiyada H.Lee asaridan olingan *“Atticus said to Jem that he had to protect the child from such madness”* misoli **[V + N]** modelining badiiy matndagi voqelanishini ko‘rsatadi[35].

Dissertatsiyaning **“Ingliz tilida yosh konseptining lingvomadaniy xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobi uch fasldan iborat. “Yosh konsepti bilan bog‘liq madaniy kodlar” deb nomlangan birinchi faslda konseptining lingvomadaniy tabiati tadqiq etilib, inson umrining biologik bosqichlari tilda somatik, zoomorf, fitomorf va teomorf kabi madaniy kodlar tizimi orqali qanday modellashtirilishi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shuningdek, ingliz madaniyatida bolalikdan to qarilikkacha bo‘lgan davrlarga oid ijobiy va salbiy

[34] Lewis M. The Lexical Approach: The State of ELT and a Way Forward. – Hove: Language Teaching Publications, 1993. – P. 89–96.

[35] Lee H. *To Kill a Mockingbird*. – New York: Warner Books, 1982. – P. 197.

stereotiplar tahlil qilinib, ularning jamiyat ijtimoiy ongida kognitiv sxemalar sifatida namoyon bo‘lish xususiyatlari aniqlandi.”

Yosh konseptining lingvomadaniy mazmunini ochishda madaniy kodlar muhim o‘rin tutadi, chunki ular xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari, dunyoqarashi va milliy mentalitetini til birliklari orqali ifodalovchi ramziy-ma’noviy tizim hisoblanadi. D.Xudoyberganova madaniy kodni xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari va milliy mentaliteti asosida shakllangan ramzlar, tasavvurlar, ma’no va obrazlar tizimi sifatida talqin qiladi [36]. N.Alefirenko qarashlarida ham til birliklarining mazmuni ularning madaniy, tarixiy va ijtimoiy funksiyalari bilan uzviy bog‘liqlikda namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi[37]. yosh konsepti doirasida bolalik, o‘smirlik, yoshlik, o‘rta yosh va qarilik bosqichlari biologik-xronologik davr bo‘lish bilan birga, muayyan madaniy tasavvur va baholarni ham mujassamlashtiradi. Ularning lingvomadaniy mazmuni zoomorf, fitomorf, antropomorf, teomorf, somatik, makoniy, ma’naviy va predmetli kodlar orqali yuzaga chiqadi. Masalan, somatik koddagi *tiny hands* bolalikning jismoniy kichiklik va himoyaga muhtojlik belgisini, *grey hair* esa qarilikning tashqi fiziologik belgisini ifodalaydi; predmetli kodda *cradle* bolalik va hayotning boshlanishi, *walking stick* esa qarilik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

Ingliz lingvomadaniyatida yosh konsepti stereotiplar va madaniy kodlar orqali turlicha voqelanadi: stereotiplar yosh guruhlariga xos umumlashgan ijtimoiy tasavvurlarni (*young people are inexperienced* – yoshlar tajribasiz; old people are wise – keksalar dono), madaniy kodlar esa yoshning ramziy-majoziy mazmunini (*youth → spring/bloom → renewal* – yoshlik bahor va yangilanish; *old age → sunset → life’s final stage* – qarilik hayotning so‘nggi bosqichi) ifodalaydi. Demak, stereotiplar yoshga oid ijtimoiy baholarni, madaniy kodlar esa uning metaforik, assotsiativ va aksiologik mazmunini faollashtirib, yosh konseptining lingvomadaniy mohiyatini ochib beradi.

Ushbu bobning ikkinchi fasli “Ingliz maqol va matallarida yosh konseptining aks etishi” deb nomlangan. Ingliz maqol va matallarida yosh konsepti xalqning inson hayoti bosqichlari haqidagi ijtimoiy tajribasi, qadriyatlari, stereotiplari va baholash mezonlarini mujassamlashtiruvchi lingvomadaniy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Paremiologik birliklar avloddan avlodga uzatiladigan madaniy bilimlarni ixcham shaklda saqlashi sababli ularda bolalik, o‘smirlik, yoshlik, o‘rta yosh va qarilikka xos belgilar obrazli tarzda kodlanadi. K.Ruziyev maqollarni til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi, jamiyatning ijtimoiy, axloqiy va tarixiy tajribasini saqlovchi birliklar sifatida tavsiflaydi [38]. Yoshga oid ingliz paremiologik birliklarining semantik mazmunida **bolalik → tarbiya va shakllanish; o‘smirlik → tajribasizlik va o‘tish; yoshlik → faollik, kuch va imkoniyat; o‘rta yosh → yetuklik va mas’uliyat; qarilik → tajriba va donolik** kabi aksiologik belgilar yetakchilik qiladi. Bunda yosh bosqichlari ko‘pincha tabiat sikli bilan

[36]Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2019. – № 3. – B. 12.

[37]Алефиренко Н. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка. – М.: Флинта, Наука, 2010. – С. 136.

[38] Ruziev K.B. Proverbs and corpus linguistics // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2020. – № 6. – P. 64–67.

metaforik qiyoslanib, **bahor, tong, gullash va olov** yoshlik hamda rivojlanishni, **kuz, qish va so‘nish** esa qarilik va hayotning kechki bosqichlarini ifodalashga xizmat qiladi. Paremiologik birliklarda yosh shu tariqa oddiy xronologik ko‘rsatkichdan chiqib, tarbiya, yetuklik, tajriba, mas’uliyat va donolik kabi ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni ifodalovchi konseptual kategoriyaga aylanadi.

Ingliz tilidagi yosh konseptiga oid maqol va matallarni ajratish va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilishda H.Bohnning ***A Hand-Book of Proverbs***, J.Speake tahriridagi ***The Oxford Dictionary of Proverbs***, M.Attia va hammualliflarning ***Live and Learn: Current English Proverbs, Explained*** hamda W.Smith tuzgan ***The Oxford Dictionary of English Proverbs*** kabi paremiografik manbalardan foydalanildi[39]. Ushbu manbalardan olingan yoshga oid paremiologik birliklar **bolalik, o‘smirlik, yoshlik, o‘rta yosh va qarilik** mikrokonseptlari doirasida semantik va lingvomadaniy jihatdan guruhlandi. Bolalik mikrokonseptida tarbiya va shaxs shakllanishi yetakchi mazmun sifatida namoyon bo‘ladi: *Child is the father of the man* (“Bola - kelajakdagi insonning otasi”) insonning kelajakdagi xarakteri bolalik davridayoq shakllanishini anglatsa, *As the twig is bent, so grows the tree* (“Novda qanday egilsa, daraxt shunday o‘sadi”) bolalikdagi tarbiyaning keyingi hayotga ta’sirini ifodalaydi. *From tiny seeds grow mighty trees* (“Kichik urug‘lardan ulkan daraxtlar o‘sadi”) birligida esa bolalik **urug‘**, insonning keyingi kamoloti **daraxt** obrazi orqali konseptuallashtiriladi. O‘smirlik va yoshlikda *A young colt needs gentle reins* (“Yosh toychoqqa muloyim jilov kerak”) yosh avlodning to‘g‘ri yo‘naltirishga ehtiyojini, *Young fire burns hottest* (“Yosh olov eng qizg‘in yonadi”) jo‘shqinlik va kuchli hissiyotlarni, *Young branches reach for the sun* (“Yosh shoxlar quyoshga cho‘ziladi”) o‘sish va yuksak maqsadlarga intilishni, *Young rivers run wild* (“Yosh daryolar shiddat bilan oqadi”) esa energiya va beqarorlikni metaforik tarzda ifodalaydi. O‘rta yosh va qarilikka oid paremiologik birliklarda **yetuklik, barqarorlik, tajriba va donolik** bilan bog‘liq aksiologik belgilar ustunlik qiladi. *Life begins at forty* (“Hayot qirq yoshdan boshlanadi”) o‘rta yoshni yangi imkoniyatlar va faoliyat davri sifatida, *The sun is still high at noon* (“Quyosh peshinda hali ham baland”) esa hayotiy kuch va imkoniyatlarning yuqori pallasi sifatida tasvirlaydi. *Middle age is the afternoon of life* (“O‘rta yosh - hayotning tushdan keyingi pallasi”) birligida inson umri kunning vaqt bosqichlariga qiyoslanib, o‘rta yosh yetuklik va barqarorlik davri sifatida konseptuallashtiriladi. Qarilik mikrokonseptida esa ikki tomonlama aksiologik munosabat kuzatiladi: *Gray hairs bring wisdom* (“Oq sochlar donolik olib keladi”) qarilikni tajriba va donolik bilan, *The winter of life is the time for reflection* (“Hayot qishi - mushohada pallasi”) hayotni sarhisob qilish bilan, *The tree in autumn still bears fruit* (“Kuzdagi daraxt ham meva beradi”) esa keksalikda ham ijtimoiy va ma’naviy foydalilikning saqlanishi bilan bog‘laydi. Aksincha, *You can’t teach an old dog new tricks* (“Qari

[39] Bohn H.G. A Hand-Book of Proverbs, Comprising Ray’s Collection of English Proverbs, With His Additions from Foreign Languages, and a Complete Alphabetical Index. – London: George Bell and Sons, 1899. – 640 p.; Speake J. (ed.). The Oxford Dictionary of Proverbs. – 5th ed. – Oxford: Oxford University Press. – 625 p.; Attia M., Marino J., Bayern D., Saunders B. Live and Learn: Current English Proverbs, Explained. – 2019. – 177 p.; Smith W.G. (comp.). The Oxford Dictionary of English Proverbs / introd. and index by J.E.Heseltine. – Oxford: Clarendon Press, 1935. – 644 p.

itga yangi hiyla o‘rgatib bo‘lmaydi”) qarilikka nisbatan yangilikka moslashishning qiyinligi haqidagi stereotipik tasavvurni aks ettiradi.

Ushbu bobning uchinchi fasli “Yosh konseptining badiiy matnda voqelanishi” deb nomlanib, badiiy matnlarda hayotining turli bosqichlari leksik-semantik, kognitiv-assotsiativ, metaforik va pragmatik qatlamlarda ifodalanib, **bolalik, o‘smirlik, yoshlik, o‘rta yosh va qarilik** mikrokonseptlarining o‘ziga xos belgilari ochiladi[40]. Bolalik *little Em’ly, baby, child, little child, orphan, infancy* kabi birliklar orqali bevosita verbalizatsiyalanib, *purity, tenderness, angel* kabi birliklar bilan beg‘uborlik, mehr, poklik va himoyaga muhtojlik assotsiatsiyalarini yuzaga chiqaradi. Masalan, *“...that blue-eyed mite of a child... made a very angel of her”* parchasida **child → purity → angel** modeli orqali bolalik ma’sumlik va ilohiy soflik bilan bog‘lanadi. O‘smirlik va yoshlik esa *young, youth, hardly in his teens, young and inexperienced, youthful bloom, child-wife, blooming world* kabi birliklar vositasida ifodalanib, hissiy o‘zgaruvchanlik, tajribasizlik, mustaqillikka intilish va rivojlanish belgilarini faollashtiradi. O‘rta yosh va qarilik tasvirlarida esa yosh konseptining yetuklik, tajriba, jismoniy o‘zgarish va hayotiy xotira bilan bog‘liq semantik qatlamlari kuchayadi. *“advanced towards maturer years”* birikmasi insonning yetuklik sari rivojlanishini, *“the dream of my youth, and the fallacious aspiration of my riper years”* jumlasi esa yoshlik orzulari bilan yetuklik davridagi hayotiy tajribani qarama-qarshi qo‘yadi. Qarilik *old, elderly, elderly ladies, elderly gentleman, grey beard, wrinkles, sight is weak, limbs are feeble* kabi birliklar orqali verbalizatsiyalanadi. Masalan, *“He is... grown very old... his sight is weak, and his limbs are feeble”* parchasida qarilik ko‘rishning zaiflashuvi va jismoniy kuchning kamayishi orqali biologik jihatdan tavsiflansa, *elderly gentleman* kabi birliklarda yosh ijtimoiy maqom bilan ham bog‘lanadi. Badiiy matn tahlili asosida yosh konseptining XIX-XX asr ingliz adabiyotidagi lingvomadaniy ifodalanish xususiyatlari aniqlandi. Olingan natijalar tahlil qilingan asar doirasida umumlashtirildi.

XULOSA

1. Ingliz tilida yosh konsepti biologik, psixologik, ijtimoiy va madaniy belgilarni birlashtiruvchi ko‘p qatlamli kognitiv tuzilma ekanligi aniqlanib, uning konseptual maydoni bolalik, o‘smirlik, yoshlik, o‘rta yosh va qarilik mikrokonseptlari asosida tizimlashtirildi hamda umuminsoniy va milliy-madaniy xususiyatlari ochib berildi.

2. Yosh konseptining morfemik-derivatsion verbalizatsiyasida -hood, -er, -ish, -ity, pre-, under- kabi vositalarning yoshga oid birliklar hosil qilishdagi funksional-semantik imkoniyatlari aniqlandi.

3. Yosh konseptining besh mikrokonsepti o‘zaro bog‘liq konseptual-semantik tizimni tashkil etishi asoslandi. Bolalik beg‘uborlik va qaramlik, o‘smirlik o‘tish va o‘zgarish, yoshlik faollik va imkoniyat, o‘rta yosh mustaqillik va mas’uliyat, qarilik esa tajriba va donolik kabi belgilar orqali tavsiflanishi aniqlandi.

[40] Dickens Ch. David Copperfield. – London: Penguin Books, 2004. – P. 25.

4. Yosh konseptining leksik-semantik maydoni yadro, yaqin va uzoq periferiya asosida tizimlashtirildi. Child, teenager, young, adult, old kabi bevosita yoshni ifodalovchi birliklar yadroga, in the flower of youth, long in the tooth kabi obrazli va baholovchi ifodalar periferiyaga mansubligi asoslandi.

5. Yoshga oid frazeologik birliklar konseptning obrazli, aksiologik va stereotipik mazmunini ifodalashi aniqlandi. Jumladan, long in the tooth qarilikni, in the prime of life esa hayotning eng faol va yetuk davrini obrazli ifodalashi belgilandi.

6. Sintagmatik tahlil yoshga oid birliklarning [fe'l + ot] va [sifat + ot] kabi struktur modellar orqali voqelanishini ko‘rsatdi. Come of age, reach adulthood, young child, elderly person birikmalarida yoshning harakat, holat, belgi va ijtimoiy maqom bilan bog‘liq qo‘shimcha semantik mazmuni ajratiladi.

7. Ingliz lingvomadaniyatida yosh konsepti somatik, tabiiy va ma'naviy madaniy kodlar orqali ifodalanishi aniqlandi. *Grey hair* – qarilik, *spring/bloom* – yoshlik va yangilanish, *age as wisdom* – tajriba va donolik kabi assotsiativ-ramziy bog‘lanishlar yoshning milliy-madaniy mazmunini namoyon etadi.

8. Ingliz maqol va matallarida yosh bosqichlari metaforik va aksiologik modellar orqali konseptuallashtirilishi aniqlandi. *You can't teach an old dog new tricks* maqolida qarilikka oid stereotip, *With age comes wisdom* ifodasida esa yosh va donolik o‘rtasidagi ijobiy baholovchi munosabat aks etadi.

9. Ingliz badiiy matnlari tahlili yosh bosqichlarining qahramonlar ruhiyati, ijtimoiy munosabatlari va hayotiy tajribasi orqali individuallashishini ko‘rsatdi. Badiiy matnda yosh konseptining emotsional, assotsiativ va pragmatik mazmuni kontekstual vositalar orqali tavsiflanadi.

10. Tadqiqot natijasida yosh konsepti ingliz lisoniy manzarasida biologik davrlashtirishdan tashqari lingvokognitiv va lingvomadaniy mazmunga ega makrokonsept sifatida tavsiflandi. Uning morfemik-derivatsion, leksik-semantik, frazeologik, sintagmatik, paremiologik va badiiy verbalizatorlari til, tafakkur va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini namoyon etishi asoslandi.

FERGANA STATE UNIVERSITY
ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL ESTABLISHED ON THE BASIS OF THE SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES No. DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 AT FERGANA STATE UNIVERSITY
FERGANA STATE UNIVERSITY

ABDURAIMOVA MADINAKHON DILSHODJON QIZI

LINGUOCULTURAL STUDY OF THE CONCEPT OF AGE IN THE ENGLISH LANGUAGE

10.00.04 – Languages and Literature of the Peoples of Europe, America and Australia

Dissertation for the Degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
ABSTRACT

Fergana – 2026

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation was registered with the Higher Attestation Commission under No. B2024.4.PhD/Fil5259.

The dissertation was completed at Fergana State University.

The dissertation abstract is available in three languages (Uzbek, English, and Russian (summary)) on the official website of Fergana State University (www.fdu.uz) and on the "ZiyoNET" (www.ziyonet.uz) information and educational portal.

Scientific supervisor:	**Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna** Doctor of Philological Sciences, Professor
Official opponents:	**Tursunov Akmal Hamidjonovich** Doctor of Philological Sciences, Professor
	Satimova Dilafruz Numonjonovna Doctor of Philological Sciences, Professor
Leading Organization:	**Samarkand State Institute of Foreign Languages**

The defense of the dissertation will take place at a meeting of the One-Time Scientific Council established on the basis of Scientific Council No. DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 awarding scientific degrees at Fergana State University. (Address: 105 Burhoniddin Marg'inoniy Street, Fergana, 100151. Phone: (99873) 244-44-02; Fax: (99871) 281-42-44; e-mail: fardu_info@umail.uz).

The dissertation is available at the Information-Resource Center of Fergana State University (registration number _____). Address: 19 Murabbiylar Street, Fergana, 100151. Phone: (99873) 244-44-02; Fax: (99871) 281-42-44.

The dissertation abstract is distributed on "__ ___ __" _____ 2026.

(Mailing report № _____ on "____ ___ _" _____2026).

.

M.Y.Mamajonov
Chairman of the Scientific Council Awarding Scientific Degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

I.A.Saminov
Scientific Secretary of the Scientific Council Awarding Scientific Degrees, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

A.G.Muxiddinov
Chair of the Scientific Seminar under the Scientific Council Awarding Scientific Degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION
(abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation)

Relevance and Necessity of the Dissertation Topic. At the current stage of development of global linguistics, the study of language systems based on anthropocentric principles of research has become a predominant approach. The emergence of anthropocentric linguistics as a modern linguistic paradigm at the beginning of the twenty-first century has intensified scholarly interest in cognitive linguistics, which investigates the perception and conceptualization of linguistic units within the relationship between language and thought, as well as in the study of the concept as one of its fundamental categories. In contemporary linguistic research, the concept of age is of particular importance in revealing the national and cultural characteristics of language within the conceptual system. Accordingly, investigating the mechanisms through which this concept is verbalized in language is of considerable practical significance for linguistics.

In world linguistics, numerous studies have been conducted to identify the cognitive and linguocultural characteristics of concepts in different languages, focusing on their verbalization patterns, semantic structures, and national-cultural content. In this regard, it is particularly relevant to identify and systematically investigate the cognitive-semantic structure of the concept of *age*, its verbalizers, core and peripheral layers, as well as its metaphorical representations, stereotypes, and cultural codes specific to a particular language and culture. A comprehensive analysis of these aspects contributes to enriching the theoretical foundations of cognitive and linguocultural linguistics by revealing the universal and national-cultural features of the concept of *age*, substantiating its conceptual structure, and clarifying its role in the relationship between language and thought.

In recent years, particular attention has also been devoted in Uzbekistan to improving the system of foreign language learning and teaching, advancing contemporary linguistic research, and expanding international scientific and cultural cooperation. National priorities have been established to promote foreign language education as a key area of educational policy, fundamentally improve the quality of education, and strengthen public interest in learning foreign languages. These developments further emphasize the necessity of investigating foreign languages not merely as instruments of communication but also as linguocultural phenomena reflecting national and cultural values, worldviews, and patterns of thought[1]. In this regard, it is of considerable scholarly importance to investigate the representation of the concept of age in English through the five microconcepts of childhood, adolescence, youth, middle age, and old age; to identify its universal and nationally specific cultural characteristics; to determine the core and peripheral layers of its conceptual field; and to examine the mechanisms of its metaphorical, stereotypical, axiological, and culturally coded representations.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son Qarori. Source: http://lex.uz/docs/5426736. (date of access 25.12.2025)

This dissertation research contributes, to a certain extent, to the implementation of the objectives set out in the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF–5712 dated April 29, 2019, "On Approval of the Concept for the Development of the Public Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030"; the Resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ–1875 dated December 10, 2012, "On Measures to Further Improve the System of Foreign Language Learning", and No. PQ–5117 dated May 19, 2021, "On Measures to Bring the Promotion of Foreign Language Learning in the Republic of Uzbekistan to a Qualitatively New Level"; the Resolutions of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 312 dated May 19, 2021, "On Measures to Effectively Organize the Promotion of Foreign Language Learning", and No. 34 dated January 19, 2022, "On Additional Measures to Improve Foreign Language Learning", as well as other regulatory legal acts related to this field.

Alignment of the Research with the Priority Areas of Science and Technology Development in the Republic. This research was conducted in accordance with the priority area of science and technology development in the Republic of Uzbekistan entitled "Formation of a System of Innovative Ideas and Approaches to Their Implementation in the Social, Legal, Economic, Cultural, Spiritual, and Educational Development of an Information Society and a Democratic State."

Degree of Previous Research on the Problem. The theoretical foundations of the present research are based on the scholarly contributions of G.Lakoff, M.Johnson, C.Fillmore, A.Wierzbicka, I.Kalyuzhnaya, K.Vlasova, S.Yakovleva, N.Kryuchkova, and T.Maslova[2], who have conducted research in the field of cognitive linguistics, as well as the works of Uzbek linguists D.Khudoyberganova, Z.Akbarova, M.Baxromova, Z.Ma'rufova, F.Yusupjanova, D.Buzrukova, N.Komilova, S.Yusupova, and M.Yusupova[3]. To date, the concept, as a fundamental category of

[2] Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980; Fillmore C.J. Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin Publishing Co., 1982; Wierzbicka A. Semantics, Culture, and Cognition. – Oxford: Oxford University Press, 1992; Калюжная И. Возраст человека и способы его концептуализации в немецком и русском языках // Языкознание и литературоведение в синхронии и диахронии: межвузовский сборник научных статей. Вып. 1. – Тамбов: ТГУ, 2006; Власова К.А. Словообразовательные гнезда «молодой – старый» в русском языке: опыт разноаспектного сопоставительного анализа: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2002; Яковлева Е.С. «Время» и «пора» в оппозиции линейного и циклического времени // Логический анализ языка. Культурные концепты. – М.: Наука, 1996; Крючкова Н.В. Концепты возраста (на материале русского и французского языков): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Саратов, 2003.

[3] Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2015; Акбарова З.А. Олам лисоний манзарасининг шаклланишида когнитив ўзига хослик: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Фарғона, 2021; Bahramova M.M. "Ayol" konseptosferasining verbalizatorlari va kognitiv tahlili: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. – Farg'ona, 2022; Маъруфова З. Мумтоз бадиий матнларда «гўзаллик» концептининг вербаллашуви: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2022; Юсупжанова Ф. Основы и лингвокультурологические особенности вербализаторов концепта «голова» в разносистемных языках (на материале современных английского и русского языков): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2023; Buzrukova D.M. Olamning hissiy-lisoniy manzarasida "Muhabbat" konseptining lingvokulturologik va gender tahlili: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. – Farg'ona, 2023; Komilova N.A. Gender konseptual semantikasi verbalizatorlari va ularning lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy tadqiqi (hozirgi zamon ingliz va o'zbek tillari materialida): Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. – Farg'ona, 2026; Yusupova S.A. O'zbek, ingliz va yapon tillarida "hurmat" konseptining semantik, stilistik, lingvopragmatik tadqiqi: Filol. fan. doktori (DSc) ...

cognitive linguistics, has been extensively investigated in international linguistic scholarship, contributing to the identification and systematization of the principal layers of linguistic conceptualization.

In the conceptual system of language, the concept of age is regarded as one of the fundamental concepts reflecting the biological, social, and cultural stages of human life. In foreign linguistics and related fields of research, scholars such as F. Ariès, L.Kostina, S.Romaine, D.Katskova, N.Kuznetsova, V.Bashkeeva, T.Ashkharava, K.Vlasova, N.Kryuchkova, Y.Litvinenko, O.Avdeeva, Y.Konovalova, and N.Jalgasov[4] have investigated the lexical-semantic, cognitive, phraseological, sociolinguistic, and linguocultural characteristics of the concept of age from various theoretical perspectives. In Uzbek linguistics, G.Ataxanova[5] examined the cognitive-pragmatic and linguocultural characteristics of nominative units denoting human age in the English language, while R.Axrorova[6] investigated the linguistic features of age-related lexical and phraseological units in French and Uzbek, as well as the discursive characteristics of speech across different age groups. Nevertheless, a comprehensive linguocultural investigation of the cognitive, associative-verbal, and morphemic-derivational characteristics of the verbalizers representing the concept of age within the microconcepts of childhood, adolescence, youth, middle age, and old age in English, the core and peripheral layers of its conceptual field, and the interrelationships between the axiological and national-cultural factors reflected in these layers remains a relevant and significant area of linguistic research.

Relation of the Dissertation Topic to the Research Plans of the higher educational institution where the dissertation was conducted. The dissertation

---

diss. avtoref. – Farg‘ona, 2026; Yusupova M.I. “Vatanparvarlik” konseptining lingvokulturologik tadqiqi (o‘zbek, ingliz va rus tillari misolida): Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. – Farg‘ona, 2026.

